

VATAN UCHUN, MILLAT UCHUN, XALQ UCHUN!

Po'lat o'tda toblanadi, odam mehnatda

Metallurg Minbari



O'zbekiston metallurgiya kombinati aksiyadorlik jamiyatining gazetasi

2025-yil 22-avgust № 8 (1554)
Gazeta 1992-yil 7-martdan nashr etilmoqda

MUHIM BUYURTMALAR

Metall konstruksiyalar bo'linmasida investitsiya loyihalari uchun metall buyumlar ishlab chiqarilmoqda.



ENG XAVFLI ILLAT

Korrupsiyaga qarshi kurashmasak, kimdir unga yo'l ochadi. Jim turish uning tomir otishiga yordam berishdir.



VATANPARVARLIK TIMSOLI

Xalq orasida afsonaga aylangan bu voqea tildan-tilga o'tib, xalq uchun ibrat namunasiga aylandi.



"O'ZBEKISTON METALLURGIYA KOMBINATI" AKSIYADORLIK JAMIYATI

YANGI BOSHQARUV RAISI – BOSH DIREKTOR TAYINLANDI



"O'zmetkombinat" AJ Ijroiya apparati-ning majlislar zalida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi vakillari, korxona rahbarlari, bosh mutaxassislar va bo'linma boshliqlari ishtirokida kengaytirilgan yig'ilish bo'lib o'tdi.

Yig'ilishni O'zbekiston Tog'-kon sanoati va geologiya vaziri Bobir Islomov olib bordi. U o'z so'zida metallurgiya sanoatidagi ishlarning bugungi holati, kombinatni xomashyo bilan ta'minlash masalalari va uni rivojlantirish rejalariga alohida e'tibor qaratdi.

Tadbirida yirik tadbirkor, tarkibida 20 dan ortiq korxonani birlashtirgan "BA Holding" ta'sischisi va "Mehnat shuhrati" ordeni sohibi Bahodir Tojimirzayevich Abdullayev "O'zmetkombinat" AJ Boshqaruvi raisi – Bosh direktor vazifasini bajaruvchi etib tayinlangani e'lon qilindi.

Bahodir Abdullayev o'z so'zida O'zbek-

iston Respublikasi Prezidentining ishonchi va kombinat jamoasining samimiy qabuli uchun minnatdorchilik bildirdi. U "O'zmetkombinat" AJ ulkan salohiyat va salmoqli yutuqlarga ega ekanligini, birgalikdagi sa'y-harakatlar orqaligina oldinda turgan vazifalarni muvaffaqiyatli hal etish va korxona rivojiga salmoqli hissa qo'shish mumkinligini ta'kidlab o'tdi.

– Biz kombinatning rivojlanishi, sohadagi mavqeini mustahkamlashi va yangi cho'qqilarni zabt etishi uchun birgalikda ishlaymiz, – dedi.

Uchrashuv yakunida yig'ilish ishtirokchilari yangi rahbar boshchiligida "O'zmetkombinat" AJ O'zbekistonning qora metallurgiyasi sohasida mavqeini mustahkamlashda, zamonaviy texnologiyalarni joriy etishda, ichki va tashqi bozorda mahsulot raqobatbardoshligini oshirishda muvaffaqiyatlarga erishishiga ishonch bildirdilar.



BEBAHO NE'MAT

HAMMAMIZ UCHUN MUQADDAS

Mustaqillik bizga, avvalo, ona-Vatanni sevish va qadrlashni o'rgatdi. Istiqlol sharofati ila dunyo tan olgan ulug' zotlarning avlodi ekanimizni anglab yetdik. Istiqlol mo'jiza ekan, vujudimizni erk va ozodlikning g'ururbaxsh hissiyotlari qamrab oldi. Uning hayotbaxsh yog'dulari yo'llarimizni nurafshon qildi. Mustaqillik – buyuk va bebaho ne'matdir.

O'zbekiston hammamiz uchun muqaddas Vatan, ota-bobolarimiz hoki yotgan yer. Farzandlarimizni shu zaminga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning qalblarida shu muborak zaminning har bir qarichiga mehru muhabbat uyg'otish eng ulug' fazilatimizdir. Tarixiy shon-shuhratimizni, jahonda tutgan o'rnimizni anglab, porloq kelajakka munosib avlodni tarbiyalash va voyaga yetkazishga e'tibor berayotganimiz ham bugungi kunimizning yorqin belgisidir.

Istiqlol yillarida bunyodkorlik jabhasida do'stlar havas qiladigan natijalarga erishdik. Nafaqat poytaxtimiz yoki viloyat markazlari, balki bekobodimizga o'xshash shaharlarda ham mustaqillik yillarida ko'plab bunyodkorlik ishlari amalga oshirildi.

Kombinatimizda keyingi yillarda yirik investitsiya loyihasi asosida Quyuv-prokatlash majmuasi qurildi. U ishga tushsa kombinatda ishlab chiqarish hajmi oshishi kutilmoqda. Majmua ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtiradi, xarajatlar, chiqindilarni kamaytiradi va ekologik xavfsizlikni oshiradi.

Istiqlol yillarida ko'plab mana shunday yirik investitsiya loyihalari amalga oshirilib, ular mamlakatimiz mustaqilligini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Barcha metallurglarni kirib kelayotgan davlatimiz mustaqilligining 34 yilligi bilan tabriklaymiz.

Hasanboy SHOKIROV,
mehnat faxriysi.

SERTIFIKATLAR

BARQARORLIKKA XIZMAT QILADI

“O‘zmetkombinat” AJda integrallashgan menejment tizimini xalqaro standartlar talablariga muvofiqligini baholash bo‘yicha ishlar olib borilgan edi. Bu borada yaxshi natijalarga erishilayotganligi uchun kombinat ISO 9001 – Sifat menejmenti tizimi, ISO 45001 – Mehnatni muhofaza qilish va texnika xavfsizligi va ISO 50001 – Energetik menejment standartlar

bo‘yicha muvaffaqiyatli sertifikatdan o‘tkazildi. Sertifikatlar amal qilinadigan uch yil ichida korxonada xalqaro standartlar talablariga muvofiqligini tasdiqlash uchun har yili audit nazoratidan o‘tadi.

Sertifikatlar korxonadagi barcha jarayonlarning samaradorligi, barqarorligi va xavfsizligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Dilshod BEGIMQULOV.



ZOLDIRLARGA TALAB YUQORI

Zoldir prokatlash bo‘linmasida diametri 40, 50, 65, 70, 80, 100 va 120 mm bo‘lgan zoldirlar ishlab chiqariladi. Po‘lat zoldirlarga Navoiy va Olmaliq kon-metallurgiya kombinalarida, sement sanoati korxonalari-da talab yuqori.

Bu mahsulotlarga ehtiyoj ortib borayotgani bois, bo‘linmada uskunalar faol modernizatsiya qilinmoqda. Bu esa ishlab

chiqarish quvvatlarini oshirish imkonini beradi.

Jamoa doimo rejani ortig‘i bilan bajaradi. O‘tgan oyda 23 709 tonna mahsulot ishlab chiqarildi. Bu boradagi reja 107,3 foizga ado etildi. Joriy yilning yetti oyida bo‘linmada 142 000 tonna o‘rniga 145 050 tonna mahsulot ishlab chiqarilib reja 102,1 foizga bajarildi.

MEHNAT JAMOALARIDA

ISHONCHLI POYDEVOR

Metallurglar servis markazining Metall konstruksiyalar bo‘linmasi “O‘zmetkombinat” AJning asosiy investitsiya loyihalari uchun metall buyumlar ishlab chiqarish ustida ishlamoqda. Jumladan Quyuv-prokatlash majmuasi qurilish loyihasini amalga oshirish uchun ustunlar, to‘sinlar, fermalar, bog‘lamlar, zinapoyalar, maydonlar, favqulodda hodisalar uchun tarnovlar va qutilar, shuningdek po‘lat kovshlarga qopqoqlar ishlab chiqarilmoqda.

Zoldir prokatlash bo‘linmasining quvvatlarini oshirish loyihasi bo‘yicha ham Metall konstruksiyalar bo‘linmasi muhim buyurtmalar-

ni amalga oshirmoqda. Shu maqsadda tokchalar, romlar, maydonchalar, sovutish panjaralari, himoya qopqoqlari va korpuslar ishlab chiqarilayapti. Yuqori texnologiyali uskunalar uchun mo‘ljallangan bu metall mahsulotlari bir millimetrgacha bo‘lgan aniqliqda tayyorlanmoqda.

Elektrda po‘lat eritish bo‘linmasi uchun po‘lat eritish xavfsizligi va samaradorligiga bevosita ta‘sir qiluvchi qismlar – suv bilan sovutiladigan o‘choq panellari va bunker gumbazi ishlab chiqarilmoqda. Ferroqotishmalar ishlab chiqarish bo‘linmasi uchun esa qisib turadigan xalqalar, sovutilgan qoplama-



lar, retort qopqoqlari va koks ishlab chiqarish uchun butlamalar yetkazib berish yo‘lga qo‘yilgan.

Metall konstruksiyalar bo‘linmasida boshqa tarkibiy bo‘linmalarining buyurtmalari ham bajarilmoqda. Jumladan Issiqlikni o‘tkazmaydigan materiallar ishlab chiqarish bo‘linmasidan evakua-

tor zanjirlari, KVO va KP kameralariga, Kon boshqarmasidan ekskavator kovshlarini mukammal ta‘mirlash uchun buyurtmalar olinadi.

Har oyda hajmi va murakkabligiga qarab bo‘linmada 150 dan 250 tonnagacha metall konstruksiyalar buyurtmalar asosida tayyorlanadi.

Nigora AHMEDOVA.

SO‘RAGAN EDINGIZ

VAQTINCHALIK
ISHLAYOTGAN AYOLGA
HAM "DEKRET"
TO‘LANADIMI?

Bola tarbiyalash ta‘tilidagi ayolning o‘rniga ishga kirgan xodimaga ham "dekret" to‘lanadimi?

B. Alimova.

Mehnat kodeksining 112-moddasiga ko‘ra, vaqtincha mehnat shartnomasi asosida ishlayotgan ayol ham, 404-moddaga asosan, homiladorlik va tug‘ruq ta‘tiliga chiqish hamda tegishli nafaqani olish huquqiga ega. Ushbu ta‘til tug‘ruqdan avval 70 kun, tug‘ruqdan keyin esa 56 kunni tashkil etadi. Agar og‘ir tug‘ruq bo‘lsa yoki ikki va undan ortiq bola tug‘ilgan bo‘lsa, tug‘ruqdan keyingi ta‘til 70 kun etib belgilanadi. Bu davr uchun ayolga o‘rtacha ish haqining 75 foizidan kam bo‘lmagan miqdorda nafaqa to‘lanadi.

Endi tasavvur qiling, asosiy xodima o‘z ish joyiga qaytdi. Agar vaqtincha ishlayotgan ayol homilador bo‘lsa va bu holat shifokor ma‘lumotnomasi bilan tasdiqlansa, u holda ish beruvchi uni sog‘lig‘iga mos boshqa ishga o‘tkazishi shart. Agar bunday ish mavjud bo‘lmasa, mehnat shartnomasi bekor qilingan taqdirda ham ayol nafaqa olish huquqini saqlab qoladi. Bu Mehnat kodeksining 408-moddasida belgilangan.

Ya‘ni vaqtincha ishlayotgan bo‘lsangiz ham, qonun sizga himoya va kafolat beradi. Homiladorlik va tug‘ruq ta‘tili ham, tegishli nafaqa ham to‘lanadi.

Agar ish beruvchi bu nafaqalarni to‘lamasa, ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 49-moddasi prim-3 ga ko‘ra, u javobgarlikka tortiladi va bazaviy hisoblash miqdorining o‘n baravaridan o‘n besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

Inomjon ESHONQULOV,
“Metallurg minbari”ning
jamoatchi muxbiri, huquqshunos.

TAASSUROTLARGA BOY BO‘LDI



Bekobod shahrining so‘lim go‘shasi – Sirdaryo bo‘yida joylashgan “Sohil” bolalar oromgohida metallurglar farzandlari yozgi ta‘tillarini maroqli o‘tkazdilar. Yoz mavsumida bu maskanda har biri

12 kundan iborat besh mavsumda o‘quvchilar dam olib, hordiq chiqardilar.

Bolalarning ko‘ngilli dam olishlari uchun oromgohda turli madaniy tadbirlar, sport musobaqalari, milliy o‘yinlar, viktorinalar, ko‘rik-tanlovlar bolalarning ta‘til davrini maroqli tashkil etish uchun muntazam ravishda tashkil etildi.

“Sohil” bolalar oromgohning so‘nggi – beshinchi yakuniy bosqichida “O‘zmetkombinat” AJ boshqaruvi va kasaba uyushma qo‘mitasi hamkorlikda korxona

xodimlarining alohida e‘tibor va qo‘llab-quvvatlashga muhtoj 160 nafar farzandlarining bepul yo‘llanmalar bilan dam olishlarini tashkil qildi.

Ismoil UMMATQULOV.



JAMIYAT RIVOJIGA TAHDID

KORRUPSIYAGA QARSHI HAMKORLIKDA KURASHAYLIK!

Jamiyat rivojiga, adolat qaror topishiga, mamlakat taraqqiyotiga jiddiy to'siq bo'lib, sohalar yuksalishiga bevosita tahdid tug'diradigan eng xavfli illat – korrupsiyadir. Barchaga ayonki korrupsiya – jamiyatni turli yo'llar bilan iskanjaga oladi. Korrupsionerning yagona maqsadi davlat qonunlarini aylanib o'tib, moddiy boylikka ega bo'lishdir. Oddiy til bilan aytganda, har qanday pora olish, berish va unda vositachilik qilish, mansab vakolatini suiiste'mol qilish va vakolatidan chetga chiqish, hokimiyat harakatsizligi, mansab vakolatidan foydalanib talon-taroj qilishning barchasi bu korrupsion jinoyatlarni tashkil qiladi.

Korrupsiya dunyo miqyosida hal etilishi lozim bo'lgan global muammolardan biridir. Ushbu illat har qanday davlat va jamiyatning siyosiy-iqtisodiy rivojlanishiga jiddiy putur yetkazadi, inson huquq va erkinliklarining poymol bo'lishiga olib keladi. Shu bois unga qarshi kurash xalqaro ahamiyat kasb etib, jahon siyosatining muhim masalalari qatoridan joy olgan.

Mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurash choralarini kuchaytirish, uni ildizi bilan yo'q qilish, bu boradagi huquqiy asoslarni yanada mustahkamlash davlat siyosatining ustuvor vazifalariga aylangan.



Aziz kombinatimiz ishchi-xodimlari!

Korrupsiyaga nisbatan murosasiz bo'lishimiz shart. Bu illat korxonalar faoliyatiga ham jiddiy putur yetkazadi, iqtisodiy tushkunlikni keltirib chiqaradi, taraqqiyotni sekinlashtiradi, ishchi-xodimlarning kelajakka ishonchini yo'qotadi. Shuning uchun ham ushbu illatga qarshi kurashish barchamizning asosiy vazifamizga aylanishi lozim.

Korrupsiyaga qarshi kurash vatanparvarlik burchimiz, vijdonimiz ishdir. Bu jarayondan hech kim chetda turmasligi kerak.

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, barcha fuqarolarimiz qatorida sizlarning faolligingiz kuzatilmasa, korrupsiya huquqbuzarliklari, tamagirlik kabi holatlar haqida tegishli davlat idoralarini ogohlantirmasak, xabar bermasak ushbu

illatdan butunlay qutilishning iloji yo'q. Korrupsiyaga qo'l urish natijasida ayrim g'arazli maqsadga ega shaxslarning bu kabi illati sababli halol va o'z mehnat faoliyatiga sodiqlik bilan sidqidildan xizmat qilib kelayotgan xodimlarning ham nomiga dog' tushishi achinarli holatlardan biridir.

Har qanday ko'rinishdagi korrupsiyaning sodir etilishida, ularning ko'payishiga va o'z vaqtida barham berilmasligiga o'zimizning befarqligimiz, loqaydligimiz sabab bo'lib kelmoqda. Har bir fuqaro korrupsiya jinoyatlariga guvoh bo'lganida bunday holat haqida huquqni muhofaza qiluvchi organlarga qo'rqmasdan xabar berishi lozim. "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonunning 28-moddasida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to'g'risida axborot

berayotgan shaxslarning davlat himoyasida bo'lishi kafolatlangan hamda bu to'g'risida axborot berayotgan shaxslarni ta'qib etish qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo'lishi belgilangan.

Qadrli metallurglar!

Korrupsiyaga qarshi kurashmasak, kimdir unga yo'l ochadi. Jim turish bu illatning tomir otishiga yordam berishdir. Korrupsiya haqida xabar berish bu adolat uchun kurash, farovonligimizni ta'minlash ekanligini barchamiz yaxshi tushunishimiz zarur.

Bu illatga qarshi kurashishda eng avvalo, barcha ishchi-xodimlar o'z huquq va burchlarini bilishlari bilan bir qatorda, unga shaxsan rioya qilishlari hamda boshqalardan ham shuni talab qilishlari kerak.

Shuningdek, har birimiz korrupsiya illatiga qarshi o'zimizda toqatsizlik va murosasizlik tuyg'usini shakllantirishimiz, xizmat vazifalarimizni halol, vijdonan, yuqori professional darajada va vakolatlarimizdan chetga chiqmagan holda bajarishimiz lozim.

Davlatimizning farovonligi, xalqimizning ertangi kuni, kelajagimiz yo'lida bir maqsad sari birlashsakkina bu illatning ildizini quritishga erisha olamiz.

Roman GARAYEV,
"O'zmetkombinat" AJ
Boshqaruv raisining o'rinbosari.

DAVRA
SUHBATLARI
O'TKAZILDI

"O'zmetkombinat" AJ xodimlarida korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, ularning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish maqsadida 2025-yil 2-chorak davrida Komplaens xizmati xodimlarining ish rejasiga asosan bir qancha davra suhbatlari o'tkazildi. Jumladan, "Ikkilamchiqorametalldar" departamenti Farg'ona, Namangan, Andijon, Samarqand, Sirdaryo va Jizzax IQM filiallari xodimlarining huquqiy ongini oshirish maqsadida, korrupsiya, manfaatlar to'qnashuvini boshqarish, jinoiy faoliyatdan olingan daromadni legallashtirish, poraxo'rlik illati mavzularida davra suhbatlari tashkillashtirildi.

Unda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklari uchun javobgarlik, shuningdek korrupsiya xavfi bilan bog'liq masalalar ko'rib chiqildi.

O'tkazilgan davra suhbatlari jarayonida ishtirokchilar tomonidan berilgan barcha savollarga javoblar berildi.

G'anisher NURMATOV.



Mustaqillik yillarida mamlakatimizda keng ko'lamli buntodkorlik ishlari amalga oshirildi. Bu ishlarni bajarishda fidoyilik ko'rsatgan, jamiyatimizning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida alohida e'tiborga sazovor bo'lgan yurt-doshlarimiz davlat mukofotlari – faxriy unvonlar, orden va medallar bilan taqdirlandi.

Ular orasida "O'zmetkombinat" AJ ishchi-xodimlari ham ko'pchilikni tashkil qiladi.

Vatanimizning oliy mukofotlari bilan taqdirlanganlardan biri yurtimiz ravnaqi yo'lida kombinatimizda 35 yil fidokorona mehnat qilgan Abdusamat Roziqulovdir. Uning tarjimai holi ko'plab metallurglarga xos. Abdusamat

NOYOB MUTAXASSIS,
"YAXSHI ODAM"

o'rta maktabni tamomlagach Bekobod sanoat texnikumiga o'qishga kiradi. Bu bilim dargohini bitirgach 1986-yili metallurgiya korxonasining 1-navli prokat sexida valslovchi vazifasida ish boshladi. Oradan bir yil o'tib Elektrda po'lat eritish sexiga o'tadi. Avval operator bo'ldi, so'ng usta, quyish oralig'i smena ustasi vazifasida ishladi.

Elektrda po'lat erituvchilar jamoasida dastlabki ish davri ni A. Roziqulov shunday xotirlaydi: – Mehnat o'ta og'ir bo'lgan, eski uskunalarda ishlaganmiz. O'tda yonib, halol ishlab rizq topganmiz. Alloh bor ekan mukofotlarga loyiq topildim. O'z kasbingizni yaxshi ko'rsangiz barcha qiyinchiliklarga chidaysiz, albatta yengib o'tasiz.

Abdusamat aka yillar mobaynida boy mehnat tajribasi to'pladi. Uning boshchiligidagi brigada muntazam ravishda yuqori mehnat natijalariga erishdi. Mehnat zafarlariga erishilganida Abdusamat akaning malakali mutaxassisligi ham muhim rol o'ynardi. U suyuq metall holatini bir ko'rishda aniqlab, qaysi tezlikda va qaysi uslubda quyish kerakligini belgilar edi. Bunday o'z ishini mukammal biluvchi ustalar sanoqli bo'lgan.

– Bizning sex rejani doimo bajarib kelgan, reja bajarilmagan oy deyarli bo'lmagan. Seximiz har oy kombinat gazetalarida chiqardi. Ishlarimiz, yutuqlarimiz yoritilib borilardi, – deb xotirlaydi xizmat ko'rsatgan sanoat xodimi. – Ish faoliyatim davomida ko'plab faxriy yorliqlar, tashakkurnomalar va esdalik sovg'alari bilan mukofotlanganman. Ayniqsa, Prezidentimiz qo'lidan 2012-yil "Shuhrat" medalini olganligim hech yodimdan chiqmaydi. 2015-yilda "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan sanoat xodimi" unvonini olish baxtiga muyassar bo'lganimdan Allohga shukronalar keltiraman, hali-hali hayajon bilan eslayman.

2020-yildan pensiyaga chiqqan bu kamtarin insonni mahalladagilar ham yaxshi odam deyishadi. Xalqimiz har tomonlama insoniy fazilatlarga ega odamga jo'ngina "Yaxshi odam" deb qo'ya qolishadi. Bu "Yaxshi odam" iborasining zamirida barcha insoniy xislatlar, fazilatlar mujassam. Bunday insonlar oramizda ko'p bo'lsin, ular bekobodlik metallurglarning, faxridir.

Ismat DIYOROV.

FAXRIMIZ

VATANPARVARLIK TIMSOLI

Zaminimiz qadim-qadimdan vatanparvar, millatparvar buyuk siymolar manzil-makoni bo'lgan. Bu yurtida yashab o'tgan ko'plab ajdodlarimiz dunyo tarixida o'chmas iz qoldirishgan. Shayx Najmiddin Kubro insoniyat tarixidagi eng e'tiborli siymolardan biridir, uning nomi sharqda necha asrlardan buyon vatanparvarlik timsoli bo'lib kelmoqda.

Najmiddin Kubro (taxminan 1145-1221-yillar yashab o'tgan) chuqur bilimli, donishmand zot bo'lgan. U nafaqat Qur'on va hadis ilmlarini, balki falsafa, mantiq, tabiatshunoslik kabi fanlarni ham yaxshi o'zlashtirgan. Ayniqsa, uning tasavvuf sohasidagi qarashlari va ruhiy tarbiya uslublari o'z davrida ham, keyingi asrlarda ham katta ta'sir ko'rsatgan. Uning asosiy g'oyasi – inson qalbini poklab, uni Allohga yaqinlashtirish, ruhiy kamolot sari yo'l ko'rsatishdir.

Xorazmlik buyuk ajdodimiz o'z ona vatanini dushmanlardan himoya qila turib sharaflil o'lim topgan.

Xorazmni istilo qilishdan avval Chingizxon, dong'i o'z vatani-dan ham uzoq-uzoqlarga yoyilgan ulug' shayxga iltimos bilan elchi yo'llaydi: "Men Xorazmni bosib olib, aholisini qatli om qilmoqchiman. Siz oila azolar-ingiz bilan shaharni tark etib, xohlagan tomoningizga ketishingiz mumkin". Vatanparvar shayx Chingizxonga shunday javob qay-



taradi: "Mening 75 yillik umrim shu tuproqda kechdi. Shu xalq bilan birga hayotning butun achchiq-chuchugini tottim. Endi uning boshiga og'ir kun tushganida tashlab ketish mardlikdan emas!"

Mo'g'ul askarlari Gurganjga kirganda, shayx muridlari bilan jangga shaylanadi. U xirqasining ustidan belbog' bog'lab, qo'yinlarini tosh bilan to'ldiradi, qo'lga nayza olib, dushman qarshisiga chiqadi.

Dushmanga qarab tosh ota boshlaydi, bir nechtasini nayza bilan urib yiqitadi. Ammo yovlar uning ustiga kamon o'qi yog'diradilar. Bir o'q kelib ko'kragiga tegadi. Alisher Navoiyning yozishicha, Najmiddin Kubro bir hamlada dushman bayrog'ini tortib olgan. Yetmish besh yashar mo'ysafid – qalblarni nurlantirgan shayxi kabir holdan toysa

ham jangni to'xtatmaydi, dushman bayrog'ini g'azab bilan mahkam tortib oldi-da, shu holatda jon berdi.

Deydilarkim, vafotidan keyin o'nta odam uning mahkam qisilgan panjalari orasidan bayroqni zo'rg'a ajratib olgan. Shu tariqa Najmiddin Kubro 1221-yilda Chingizxon to'dalariga qarshi jangda shahid bo'ldi. Mazkur voqea tildan-tilga o'tib, afsonaga, xalq uchun ibrat namunasiga aylandi.

Ulug' shayx va donishmand insonning bu qahramonligi, jaso-rati dushmani ham hayratga solgan. Bu ish avlodlarga ibrat bo'ldi, xalq orasida afsonaga aylanib ketdi.

Xalqimiz o'zining bu aziz va tabarruk vatanparvar farzandini e'zozlab, asrlar davomida nomini xotirasida saqlab kelmoqda.

PAYG'AMBARIMIZ
SOLLALLOHU ALAYHI
VASALLAM MARHAMAT
QILADILAR

Bir kishiga tabassum bilan yaxshi so'z aytish – sadaqadir.

Imom Buxoriy rivoyatlari.

Qo'shnilaringiz sizni "yaxshi odam" deyishayotgan bo'lsa, demak, siz – yaxshisiz. Agar ular sizni "yomon odam" deyishayotgan bo'lsa, demak, siz – yomon odamsiz.

Sadaqaning afzali – kelisholmay qolganlarning o'rtasini isloh qilishdir.

Imom Abu Dovud rivoyatlari.

Musulmon kishini so'kish – fosiqlikdir. U bilan urushish – kofirlikdir.

Muttafaqun alayh.

Kim musulmon birodarining aybini yashirsa, Alloh uning aybini Qiyo-mat kuni yashiradi. Kim musulmon birodarining aybini oshkor qilsa, Alloh uning aybini oshkor qiladi, hatto uni o'z uyida ham sharmanda qiladi.

Imom Ibn Moja rivoyatlari.

Poklik – imondandir.

Kim agar birovning aybini aytib, odamlarga oshkor qilsa, to o'zi ham shu aybni qilmasdan dunyodan ketmaydi.

Kimiki biror mo'min kishining aybi yoki gunohini bilib turib, uni fosh etmay yashirsa, go'yo tirigicha ko'milgan go'dakni tiriltirganchalik savobga ega bo'lur.

Imom Bayhaqiy rivoyatlari.

To'plovchi Ibrohimjon domla
INOMOV.

DONOLAR DEYDILARKI...

Vatan tarkini bir nafas aylama, Ani ranji – g'urbat, havas aylama.

A. NAVOIY.

Vatanga nafi yo'q yashalgan har kun, inson hayotida qolur bemazmun.

M. SALMON.

Kim o'z yurtini sevmasa, u hech nimani seva olmaydi.

J. BAYRON.

O'z yurtidan yuz o'giranlar o'z vijdonlaridan ham yuz o'giradilar.

Y. GALAN.

Saxovatning eng buyuk jasurliklari vatanga muhabbat tufayli yuzaga kelgan.

J. RUSSO.

Ma'rifatli xalqlarning haqiqiy jasorati vatan yo'lida qurbon bo'lishga hozir ekanliklarida aks etadi.

G. GEGEL.

Shunday jinoyat borki, uni oqlab bo'lmaydi, – bu vatanga xiyonatdir.

BUAST.

XANDALAR

ham to'layapman...

Bir bolakay dasiga:
– Dada, uylanish uchun qancha pul kerak?

Dadasi onasiga pul berayotgan ekan:

– Bilmayman bolam, men hali

– Kecha bezorilar tutib olib, hamyonim, soatim va telefonimni olib qo'yishdi.

– Boksdan chempion medaling bor, shekilli?

– Ha, bor. Hayriyat, uni topisholmadi.

BILIMINGIZNI SINAB KO'RING!

O'zbekiston Mustaqillik deklaratsiyasi qachon e'lon qilingan edi?

"O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida"gi qonun qachon va nima asosida qabul qilingan?

Davlatimiz mustaqilligining birinchi yili O'zbekiston metallurgiya zavodida qancha po'lat eritilib, necha tonna navli prokat mahsulotlari ishlab chiqarilgan?

"O'zmetkombinat"da Mustaqillik yillarida ishlab chiqarishda dastlabki amalga oshirilgan eng yirik loyihani bilasizmi?

Javoblarni gazetasining keyingi sonidan bilib olasiz.



Gazetasining o'tgan sonidagi savollarning javoblari.

* Qur'on qiroat, o'qish degan ma'noni bildiradi.

* Sirlangan idishlar ishlab chiqarish 1974-yil avgust oyidan boshlangan.

* "Ikkilamchiqorametallar" xo'jalik hisobidagi boshqarma 1992-yil 18-iyunda tashkil etilgan.

* Portugallar tomonidan Braziliya mamlakatining nomi berilgan.



MUASSIS:
O'zbekiston metallurgiya
kombinati aksiyadorlik jamiyati.

www.uzbeksteel.uz

Muharrir:
Ismadiyor MAMATQULOV

TAHRIRIYAT: Bekobod shahar
"O'zmetkombinat"
aksiyadorlik jamiyatining Ijroiya
apparati joylashgan.
Tel: 10-19

Gazeta oyda ikki marta
chiqadi.

Gazeta tahririyat kompyuterida
terilib, sahifalandi.
Bichimi A-3.
ISSN 2181-645X

Sahifalovchi:
Inom Xojimurodov

Toshkent viloyati Axborot va
ommaviy kommunikatsiyalar
boshqarmasi tomonidan 2015-
yil 6-mayda 03-006 raqam bilan
ro'yxatga olingan.